

MATBUOT ANJUMANI O‘TKAZILDI



Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida, mahalliy Kengash deputatlarining ishtirokini ta‘minlash, joylarda deputatlik nazoratini kuchaytirish, mahalliy Kengashlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”dagi “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb nomlangan birinchi ustuvor yo‘nalishning 2-maqsadida “Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish” nazarda tutilgan. Mazkur maqsadga erishish uchun:

birinchidan, xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish;

ikkinchidan, xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo‘yicha

mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash;

to'rtinchidan, mahalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qatorida keltirib o'tilgan.

Shaharda 2023 yilning dekabr oyigacha o'tkazilgan 12 ta sessiyalarda 141 ta turli masalalar, jumladan, 70 ta hisobotlarni eshitish, 27 ta axborotlarni eshitish, 8 ta muhokama etish, 7 ta nazorat tahlil tadbirlari, 19 ta vakolat doirasidagi qarorlarni tasdiqlash, 3 ta hokim qarorlarini tasdiqlash, 6 ta boshqa masalalar bo'yicha xalq deputatlari shahar Kengashining qarorlari qabul qilindi.

Joriy yilning hozirgi kuniga qadar 65 ta deputatlik so'rovlari chiqarilgan, 47 marotaba saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazilgan. Mazkur uchrashuvlarda aniqlangan muammolardan 90 tasi hal etilgan. Yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan 72 ta murojaatlardan 56 tasi ijobiy hal etilgan. Deputatlik faoliyati 4 marotaba bosma nashrlarda, 20 marotaba televideniya, 150 marotaba internet saytlarda, 450 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan.